Xorijiy mamlakatlarda kredit-modul tizimi dastlab ta'lim jarayonini standartlashtirish emas, balki ta'lim natijalarining taqqoslanuvchanligini ta'minlash muammosini hal etish vositasi sifatida shakllangan. Ayniqsa, talabalarining bir oliy ta'lim muassasasidan boshqasiga ko'chishi, akademik mobillik va diplomlarning o'zaro tan olinishi masalalari kredit-modul tizimining normativ asoslarini yaratishda muhim omil bo'lgan. Shu sababli xorijiy tajribada kredit-modul tizimi bilan bog'liq o'quv-me'yoriy hujjatlar faqat milliy ehtiyojlarga emas, balki xalqaro talablar va kelishuvlarga ham moslashtirilgan holda ishlab chiqilgan.

Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, xorijiy ta'lim tizimlarida kredit-modul yondashuvining shakllanishi, eng avvalo, o'quv yuklamasini aniqlashga bo'lgan yondashuvning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan. An'anaviy tizimlarda o'quv yuklamasi auditoriya soatlari bilan o'Ichangan bo'lsa, kredit-modul tizimida u talabning umumiy mehnati – auditoriya mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim, amaliyot, loyiha ishlari va baholashga tayyorgarlikni qamrab olgan integral ko'rsatkich sifatida talqin etiladi. Bu yondashuv o'quv-me'yoriy hujjatlarda ta'lim mazmunini qayta strukturalashni talab qilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy tajribada davlat ta'lim standartlari va malaka talablari endilikda fanlar ro'yxatini belgilovchi hujjatlar emas, balki ta'lim natijalari va kompetensiyalarni tavsiflovchi normativ asos sifatida qaraladi. Natijada o'quv rejalari ham qat'iy fan-markazli tuzilmalardan voz kechib, modul va kompetensiyalar asosida loyihalangan moslashuvchan hujjatlarga aylangan. Bu jarayon kredit-modul tizimining didaktik mohiyatini kuchaytirgan va o'quv-me'yoriy hujjatlarni pedagogik boshqaruv vositasiga aylantirgan.

Xorijiy tajribada o'quv-me'yoriy hujjatlarning yana bir muhim xususiyati – ularning tizimli va ierarxik tuzilishga ega ekanligidir. Ya'ni davlat darajasidagi normativ hujjatlar (malaka ramkalari, ta'lim darajalari tavsifi) bilan oliy ta'lim muassasasi darajasidagi hujjatlar (o'quv rejalari, fan dasturlari, sillabuslar) o'rtasida qat'iy mantiqiy bog'liqlik mavjud. Bu bog'liqlik kredit-modul tizimida ta'lim natijalarining izchilligini va uzviyligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Metodik manbalarda qayd etilishicha, aynan ushbu normativ-didaktik uyg'unlik xorijiy mamlakatlarda kredit-modul tizimining samarali ishlashini ta'minlagan. O'quv-me'yoriy hujjatlar o'rtasidagi nomuvofiqlik minimal darajaga tushirilgan, baholash mezonlari esa oldindan belgilangan ta'lim natijalari bilan uzviy bog'langan. Natijada kredit-modul tizimi tashkiliy mexanizm emas, balki pedagogik jihatdan asoslangan yaxlit tizim sifatida shakllangan.

Shu nuqtai nazardan, xorijiy tajriba kredit-modul tizimida o'quv-me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish masalasini alohida pedagogik muammo sifatida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. Chunki mazkur hujjatlar orqali ta'lim siyosati, didaktik yondashuv va real o'quv jarayoni o'zaro bog'lanadi. Xorijiy tajribani tahlil qilish milliy oliy ta'lim tizimida kredit-modul tizimini mazmunan joriy etish uchun muhim ilmiy-metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

AQSh oliy ta'lim tizimiga kredit-modul yondashuvining kirib kelishi va institutsional mustahkamlanishi, avvalo, ta'lim yuklamasini standartlashtirish zarurati bilan bog'liq bo'lgan. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida AQShda kollej va universitetlarga kirish talablari, o'qish davomiyligi hamda kurslarni tan olish mezonlari bo'yicha keskin nomuvofiqliklar mavjud edi. Bu esa talabalarning bir muassasadan boshqasiga o'tishi (transfer), o'qish natijalarini tan olish va o'qituvchilar ish yuklamasini me'yorlashda tizimli muammolarni keltirib chiqargan. Ushbu muammolarni yumshatish maqsadida ta'lim natijalarini yagona "o'lchov" asosida hisoblash g'oyasi shakllanib, keyinchalik "credit hour / student hour" ko'rinishida oliy ta'lim amaliyotiga singib borgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yevropa oliy ta'lim makonida (ECTS) kredit-modul tizimi. Yevropa oliy ta'lim makonida kredit-modul tizimining shakllanishi va rivojlanishi o'quv-me'yoriy hujjatlarning mazmuni, tuzilishi hamda didaktik funksiyalarini tubdan qayta ko'rib chiqish bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Xorijiy tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, Yevropada ham kredit-modul yondashuvi, avvalo, oliy ta'lim tizimlarining fragmentarligini bartaraf etish, diplom va malakalarni o'zaro tan olish hamda akademik mobillikni ta'minlash muammolarini hal etish ehtiyojidan kelib chiqqan. Mazkur ehtiyojlar Bologna Declaration asosida shakllangan European Higher Education Area doirasida tizimli yechim topgan bo'lib, unda kredit-modul tizimi (ECTS) markaziy mexanizm sifatida belgilangan^[4].

Yevropa tajribasida kredit-modul tizimi AQShdagi "credit hour" modelidan farqli ravishda o'quv yuklamasini faqat vaqt bilan emas, balki ta'lim natijalari va kompetensiyalar bilan bevosita bog'lash tamoyiliga asoslangan. Shu sababli European Credit Transfer and Accumulation System nafaqat hisob-kitob vositasi, balki o'quv-me'yoriy hujjatlarni didaktik jihatdan qayta loyihalashga xizmat qiluvchi konseptual tizim sifatida qaraladi. ECTSning joriy etilishi bilan Yevropa oliy ta'lim muassasalarida o'quv rejalari, fan dasturlari, modul tavsiflari, sillabuslar va baholash hujjatlari o'zaro uzviy bog'langan yagona didaktik mantiqqa bo'ysundirildi^[5].

Yevropa tajribasida o'quv-me'yoriy hujjatlarning rivojlanishidagi asosiy burilish nuqtasi – ta'lim natijalariga asoslangan yondashuvning normativ darajada mustahkamlanishidir. ECTS Users' Guide hujjatlarida o'quv dasturlari va kurslar ta'lim natijalari (learning outcomes) orqali tavsiflanishi, kreditlar esa ushbu natijalarga erishish uchun talaba sarflaydigan umumiy mehnat hajmini ifodalashi belgilab qo'yilgan. Bu talab Yevropa universitetlarida o'quv rejalari va fan dasturlarini mazmunan yangilashga olib kelgan. An'anaviy fan-markazli o'quv rejalari o'rnini modul va kompetensiyalar asosida tuzilgan moslashuvchan rejalashtirish tizimi egallagan.



Yevropa oliy ta'lim makonida o'quv rejaları (programme structure) strategik o'quv-me'yoriy hujjat sifatida rivojlangan bo'lib, ular ta'lim darajasi (bakalavr, magistr), umumiy kredit hajmi, asosiy va tanlov modullari hamda kutilayotgan kompetensiyalarni aniqlab beradi. Kredit-modul tizimi sharoitida o'quv rejaları talabning individual o'quv trayektoriyasini shakllantirish imkonini beruvchi hujjat sifatida qaraladi. Bu holat o'quv rejasining normativ hujjatdan ko'ra pedagogik loyihalash vositasiga aylanganini ko'rsatadi.

Fan dasturlari va modul tavsiflari Yevropa tajribasida o'quv-me'yoriy hujjatlarning asosiy mazmunini yadrosini tashkil etadi. Modul tavsiflarida modulning maqsadi, ta'lim natijalari, o'qitish shakllari, mustaqil ta'lim hajmi, baholash mezonlari va kreditlar aniq ko'rsatiladi. Bu hujjatlar kredit-modul tizimining didaktik mantiqini real o'quv jarayoniga tatbiq etuvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Xorijiy tajribada modul tavsiflari barcha manfaatdor tomonlar – talaba, o'qituvchi va ish beruvchilar uchun tushunarli bo'lishi zarurligi alohida ta'kidlanadi. Yevropa oliy ta'lim makonida sillabuslar kredit-modul tizimining operativ-didaktik hujjati sifatida rivojlangan. Yevropa tajribasida baholash hujjatlari ham kredit-modul tizimi ta'sirida sezilarli darajada rivojlangan. Baholash mezonlari o'quv-me'yoriy hujjatlarning ajralmas qismi sifatida ta'lim natijalari bilan uzviy bog'langan holda ishlab chiqiladi. ECTS doirasida baholash natijalari nafaqat ball yoki baho ko'rinishida, balki talabning kompetensiyalarni egallash darajasini aks ettiruvchi sifat tavsiflari orqali ham ifodalanadi. Bu holat baholashni nazorat vositasidan ta'lim sifatini boshqaruvchi diagnostik mexanizmga aylantiradi.

Buyuk Britaniya oliy ta'lim tizimida kredit-modul yondashuvi (CATS). Buyuk Britaniya oliy ta'lim tizimi kredit-modul yondashuvining Yevropa makonidagi o'ziga xos, yuqori darajada normativ-didaktik jihatdan tartibga solingan modeli – CATS (Credit Accumulation and Transfer Scheme) bilan ajralib turadi. Ushbu tizim mamlakat oliy ta'limida ta'lim sifatini ta'minlash, darajalararo uzviylikni kuchaytirish hamda akademik mobillikni qo'llab-quvvatlash ehtiyojlari asosida shakllangan bo'lib, u o'quv-me'yoriy hujjatlarning yagona standartlar asosida ishlab chiqilishini talab etadi. CATS modeli Buyuk Britaniyada kreditlarni jamg'arish va transfer qilishni ta'lim natijalari, modul tuzilmasi va baholash mezonlari bilan uzviy bog'lash orqali o'quv jarayonining shaffofligi va taqqoslanuvchanligini ta'minlaydi.

Buyuk Britaniyada kredit-modul yondashuvining huquqiy-institutsional asoslari oliy ta'lim sifatini nazorat qiluvchi milliy mexanizmlar bilan mustahkamlangan [6]. Xususan, Quality Assurance Agency for Higher Education (QAA) tomonidan ishlab chiqilgan Frameworks for Higher Education Qualifications (FHEQ) hamda Subject Benchmark Statements o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda tayanch me'yor sifatida xizmat qiladi. Ushbu hujjatlar ta'lim darajalari bo'yicha kutiladigan natijalar, kredit hajmlari va kompetensiyalarni aniqlab beradi hamda universitetlarning o'quv rejaları va modullarini yagona didaktik mantiqqa bo'ysundiradi.

CATS tizimida o'quv rejaları strategik o'quv-me'yoriy hujjat sifatida rivojlangan bo'lib, ular ta'lim darajasi, umumiy kredit hajmi (odatda bakalavriat uchun 360 kredit), majburiy va tanlov modullari, shuningdek, kutilayotgan ta'lim natijalarini aniqlaydi. Kreditlar odatda 10 yoki 20 kreditli modullar asosida taqsimlanadi, bu esa o'quv rejaları tuzilmasining moslashuvchanligini ta'minlaydi. Natijada o'quv rejaları talabning individual o'quv trayektoriyasini qo'llab-quvvatlovchi pedagogik loyihalash hujjatiga aylanadi. Buyuk Britaniya tajribasida modul tavsiflari (module specification) o'quv-me'yoriy hujjatlarning markaziy bo'g'ini hisoblanadi. Har bir modul tavsifida modulning kodi, kredit hajmi, darajasi (level), maqsadi, kutilayotgan ta'lim natijalari, o'qitish va o'rganish faoliyatlari, baholash turlari hamda mezonlari aniq ko'rsatiladi. CATS sharoitida modul tavsiflari nafaqat o'quv jarayonini tashkil etuvchi hujjat, balki akkreditatsiya va tashqi baholashda asosiy dalilii manba sifatida ham xizmat qiladi. Bu holat modul tavsiflarining didaktik aniqligi va metodologik izchilligini ta'minlashni taqozo etadi.

Buyuk Britaniya oliy ta'lim tizimida o'quv-me'yoriy hujjatlarning rivojlanishidagi muhim xususiyatlardan biri – tashqi ekspertiza va muntazam qayta ko'rib chiqish amaliyotidir. QAA tomonidan o'tkaziladigan tashqi baholash jarayonlarida o'quv rejaları, modul tavsiflari va baholash hujjatlarning ta'lim natijalari bilan uyg'unligi sinchiklab tahlil qilinadi. Natijada o'quv-me'yoriy hujjatlar statik hujjatlar emas, balki ta'lim sifati va mehnat bozori talablariga mos ravishda rivojlanib boruvchi dinamik pedagogik instrumentlar sifatida shakllanadi.

Umuman olganda, Buyuk Britaniya (CATS) tajribasi kredit-modul tizimida o'quv-me'yoriy hujjatlarni takomillashtirishning yuqori darajada institutsionallashtirish modelini namoyon etadi. Ushbu tajribada o'quv rejaları, modul tavsiflari, sillabuslar va baholash mezonlari o'zaro mantiqiy izchillikda ishlab chiqilib, ta'lim natijalari va kreditlar bilan qat'iy uyg'unlashtiriladi. Bu holat kredit-modul tizimini tashkiliy mexanizm emas, balki didaktik jihatdan asoslangan va sifatni boshqarishga yo'naltirilgan ta'lim modeli sifatida qarash imkonini beradi. Buyuk Britaniya tajribasi milliy oliy ta'lim tizimida kredit-modul yondashuvini joriy etishda o'quv-me'yoriy hujjatlarning didaktik mohiyatini chuqur anglash va ilmiy asosda takomillashtirish zarurligini yaqqol tasdiqlaydi.

Germaniya va Skandinaviya mamlakatlari oliy ta'lim tizimida kredit-modul yondashuvi. Germaniya va Skandinaviya mamlakatlari oliy ta'lim tizimlarida kredit-modul yondashuvining joriy etilishi Yevropa oliy ta'lim makoni doirasida kechgan integratsiya jarayonlarining mantiqiy davomi bo'lib, u o'quv-me'yoriy hujjatlarni kompetensiyaviy va natijaga yo'naltirilgan paradigma asosida tubdan qayta loyihalash bilan tavsiflanadi. Xorijiy tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur mamlakatlarda kredit-modul tizimi tashkiliy mexanizm sifatida emas, balki ta'lim mazmunini boshqarish va sifatni ta'minlash vositasi sifatida qaraladi. Germaniya oliy ta'lim tizimida

kredit-modul yondashuvi Bolonya jarayoni doirasida izchil joriy etilgan bo'lib, bu jarayon milliy huquqiy-me'yoriy hujjatlar bilan mustahkamlangan. Germaniya tajribasida o'quv rejaları ta'lim dasturining umumiy maqsadlari, kutilayotgan kompetensiyalar, modul tuzilmasi va kreditlar taqsimotini belgilovchi strategik hujjat sifatida rivojlangan. O'quv rejaları orqali ta'lim natijalari milliy malaka doiralari bilan uyg'unlashtiriladi hamda darajalararo uzviylik ta'minlanadi. Bu holat o'quv rejasining normativ hujjatdan ko'ra pedagogik loyihalash vositasi sifatida qaralishiga olib kelgan.

Germaniyada modul tavsiflari o'quv-me'yoriy hujjatlar tizimining markaziy elementi hisoblanadi. Har bir modul tavsifida modulning maqsadi, o'quv natijalari, kompetensiyalar, o'qitish va o'rganish faoliyatlari, baholash shakllari hamda kreditlar aniq ko'rsatiladi. Kredit-modul tizimi sharoitida modul tavsiflari ta'lim mazmunining mantiqiy yaxlitligini ta'minlab, fanlararo integratsiyani kuchaytirishga xizmat qiladi. Germaniya tajribasida modul tavsiflari, shuningdek, akkreditatsiya jarayonlarida asosiy dalilii hujjat sifatida ham foydalaniladi. Baholash hujjatlari Germaniya oliy ta'limida kredit-modul tizimi ta'sirida sezilarli darajada rivojlangan. Skandinaviya mamlakatlari (Shvetsiya, Norvegiya, Daniya, Finlyandiya) oliy ta'lim tizimlarida kredit-modul yondashuvi ijtimoiy mas'uliyat, shaffoflik va talaba markaziligi tamoyillariga asoslangan holda rivojlangan. Ushbu mamlakatlarda ECTS tizimi milliy ta'lim siyosati bilan uyg'unlashtirilib, o'quv-me'yoriy hujjatlar ta'lim jarayonining ochiqligi va tushunarililigini ta'minlashga yo'naltirilgan.

Skandinaviya tajribasida o'quv rejaları va dastur tavsiflari ta'lim natijalari asosida ishlab chiqiladi. O'quv rejaları orqali talabanning individual o'quv trayektoriyasini shakllantirish, tanlov modullari ulushini oshirish va moslashuvchanlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi. Kreditlar ta'lim natijalariga erishish uchun sarflangan umumiy mehnat hajmi sifatida talqin qilinib, mustaqil ta'lim ulushi aniq me'yoriy hujjatlar orqali belgilab beriladi ^[7]. Skandinaviya mamlakatlarida sillabuslar kredit-modul tizimining muhim operativ-didaktik hujjati sifatida rivojlangan. Sillabuslarda kursning maqsadi, kutilayotgan natijalari, o'qitish usullari, mustaqil ta'lim topshiriqlari va baholash mezonlari batafsil bayon etiladi. Ushbu hujjatlar talaba va o'qituvchi o'rtasidagi akademik mas'uliyatni belgilab, ta'lim jarayonining shaffofligi va prognoz qilinishini ta'minlaydi.

Skandinaviya tajribasining muhim jihatlardan biri – baholash va o'quv-me'yoriy hujjatlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikdir. Baholash mezonlari ta'lim natijalari bilan bevosita uyg'unlashtirilib, formativ baholashga alohida e'tibor qaratiladi. Natijada baholash jarayoni talabanning rivojlanish dinamikasini monitoring qilish va pedagogik tuzatishlar kiritish imkonini beruvchi diagnostik vositaga aylanadi. Milliy tajribada kredit-modul tizimining joriy etilishi va o'quv-me'yoriy hujjatlarning transformatsiyasi. O'zbekiston Respublikasida kredit-modul tizimini joriy etish va uni o'quv jarayoniga tatbiq etish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, mazkur jarayon oliy ta'limni modernizatsiyalash, xalqaro ta'lim maydoniga integratsiyalash va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan tizimli islohotlar bilan chambarchas bog'liqdir ^[1]. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 07.02 dagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son¹ Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi hujjatlarda kredit-modul tizimini joriy etish oliy ta'limni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Milliy tajribada kredit-modul tizimining bosqichma-bosqich joriy etilishi dastlab tajriba-sinov asosida amalga oshirilgan ^[2]. Jumladan, 2018-yilda Toshkent axborot texnologiyalari universitetida kredit tizimi pilot loyiha sifatida tatbiq etilgan bo'lsa, 2020/2021-o'quv yilidan boshlab 35 ta oliy ta'lim muassasasida, 2021/2022-o'quv yilidan esa Respublikadagi barcha davlat oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni to'liq kredit-modul tizimi asosida tashkil etildi. Ushbu jarayon milliy oliy ta'lim tizimining tub institutsional transformatsiyasini anglatadi. Milliy modelda kredit-modul tizimi Yevropa kreditlarni to'plash va ko'chirish tizimi (ECTS) asosida tashkil etilgan. Unga ko'ra, o'quv yili 36 haftani tashkil etib, uning 30 haftasi akademik mashg'ulotlarga, 2 haftasi fanlarni tanlash va ro'yxatdan o'tishga, 4 haftasi esa yakuniy attestatsiyalarga ajratiladi. Bir kredit 25-30 akademik soatga teng bo'lib, mazkur yuklama auditoriya mashg'ulotlari va talabanning mustaqil ta'lim faoliyati nisbatida taqsimlanadi. Bakalavriatda auditoriya mashg'ulotlari ulushi 40-50 foizni, mustaqil ta'lim esa 50-60 foizni tashkil etadi, magistraturada esa mustaqil ta'lim ulushi ustuvor hisoblanadi.

Kredit-modul tizimi sharoitida o'quv-me'yoriy hujjatlar mazmunan va strukturaviy jihatdan tubdan yangilandi. Avvalo, Davlat ta'lim standartlari ECTS talablariga moslashtirildi hamda oliy ta'lim muassasalariga o'quv rejaları, fan dasturlari (sillabuslar)ni mustaqil ishlab chiqish va tasdiqlash vakolati berildi. Bu holat ta'lim dasturlarining moslashuvchanligini, mehnat bozori talablariga yo'naltirilganligini va hududiy-iqtisodiy ehtiyojlarni inobatga olish imkonini yaratdi. O'quv-me'yoriy hujjatlar bilan ishlash jarayonida endilikda asosiy e'tibor ta'lim natijalariga (learning outcomes), kompetensiyaviy yondashuvga va talabanning shaxsiy ta'lim trayektoriyasini shakllantirishga qaratilmoqda. O'quv rejalarida majburiy va tanlov fanlarining optimal nisbatda joylashtirilishi, sillabuslarda esa fan maqsadi, kutilayotgan ta'lim natijalari, baholash mezonlari, kredit hajmi va o'quv yuklamasining aniq belgilanishi talab etiladi. Bu esa o'quv-me'yoriy hujjatlarning nafaqat tashkiliy, balki metodik

1 <https://lex.uz/docs/-3107036>



va didaktik ahamiyatini ham kuchaytiradi. Shuningdek, milliy kredit-modul tizimida o'quv hujjatlari talabning akademik mobilligini ta'minlash vositasi sifatida qaraladi. Kreditlarning to'planishi va tan olinishi mexanizmlari orqali talaba o'z ta'lim trayektoriyasini erkin rejalashtirish, boshqa oliy ta'lim muassasalarida o'qishni davom ettirish yoki akademik almashinuv dasturlarida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu holat o'quv-me'yoriy hujjatlarning shaffofligi va xalqaro standartlarga mosligini taqozo etadi.

Xorijiy va milliy tajribani qiyosiy tahlil qilish kredit-modul tizimining samaradorligi bevosita o'quv-me'yoriy hujjatlarning mazmuniy yetukligi, didaktik izchilligi va integrativ xarakteriga bog'liqligini yaqqol namoyon etadi. Rivojlangan xorijiy oliy ta'lim tizimlarida kredit-modul yondashuvi ta'lim jarayonini tashkiliy jihatdan qayta qurish bilan cheklanmay, o'quv-me'yoriy hujjatlarni ta'lim mazmunini loyihalash va boshqarishning markaziy pedagogik mexanizmi sifatida shakllantirishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi.

Xususan, Yevropa (ECTS), Buyuk Britaniya (CATS), Germaniya, Skandinaviya hamda Osiyo-Tinch okeani mamlakatlari tajribasida o'quv rejalari, modul tavsiflari, sillabuslar va baholash hujjatlari yagona mantiqiy tizimda ishlab chiqilib, ta'lim natijalari va kompetensiyalar bilan qat'iy uyg'unlashtiriladi. Bu tizimda o'quv-me'yoriy hujjatlar statik normativ hujjatlar emas, balki ta'lim jarayonining dinamik, refleksiv va boshqaruvchan komponentlari sifatida namoyon bo'ladi. Natijada kredit-modul tizimi ta'lim sifatini oshirish, akademik mobillikni kengaytirish va ta'lim natijalarining xalqaro taqqoslanuvchanligini ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, xorijiy tajribada sillabuslar va modul tavsiflari ta'lim natijalarini amaliy o'quv faoliyatiga tatbiq etuvchi asosiy didaktik vosita sifatida qaraladi. Milliy tajribada esa sillabuslar ko'pincha axborot beruvchi hujjat sifatida ishlab chiqilib, ularning pedagogik boshqaruv, motivatsion va diagnostik imkoniyatlari to'liq ishga solinmayapti. Natijada kredit-modul tizimining talaba markaziligi va natijaga yo'naltirilganligi yetarli darajada ta'minlanmay qolmoqda.

Xorijiy va milliy tajriba o'rtasidagi muhim farqlardan yana biri baholash hujjatlarining funksional talqinida namoyon bo'ladi. Xorijiy tajribada baholash ta'lim jarayonini boshqaruvchi va rivojlantiruvchi diagnostik mexanizm sifatida qaralsa, milliy amaliyotda u ko'proq yakuniy nazorat vositasi sifatida saqlanib qolmoqda. Bu holat baholash va ta'lim natijalari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikning yetarli darajada shakllanmaganligini ko'rsatadi.

Mazkur qiyosiy tahlil asosida quyidagi umumiy pedagogik xulosalarni ilgari surish mumkin:

birinchidan, kredit-modul tizimini samarali joriy etish uchun o'quv-me'yoriy hujjatlarni alohida-alohida takomillashtirish emas, balki ularni yagona didaktik tizim sifatida qayta loyihalash zarur;

ikkinchidan, o'quv rejalari, modul tavsiflari, sillabuslar va baholash hujjatlari ta'lim natijalari va kompetensiyalar bilan qat'iy uyg'unlashtirilishi lozim;

uchinchidan, o'quv-me'yoriy hujjatlar kredit-modul tizimida ta'lim jarayonini boshqaruvchi, diagnostika qiluvchi va motivatsiya beruvchi asosiy pedagogik vosita sifatida talqin etilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23.09 dagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RB-637-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 07.02 dagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-3107036>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 08.10 dagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4545884>
4. European Higher Education Area. The Bologna Declaration of 19 June 1999. – Bologna, 1999.
5. European Association for Quality Assurance in Higher Education. Standards and Guidelines for Quality Assurance in the European Higher Education Area (ESG 2015). – Brussels, 2015.
6. Quality Assurance Agency for Higher Education. The Frameworks for Higher Education Qualifications of UK Degree-Awarding Bodies. – Gloucester: QAA, 2024.
7. Swedish Higher Education Authority. Course and Programme Syllabuses.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.